



Tadqiqot.uz

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



conferences.uz

No 18  
31 июль



**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
16 -ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
18-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-16**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
18-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-16**

**ТОШКЕНТ-2020**

## **МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT**

---

<b>19. Toirova Elmira Nabi qizi</b> TILSHUNOSLIK SOHALARIDA KOMPYUTERDAN UNUMLI FOYDALANISH.....	46
<b>20. Xisometdinova Ro'zigul Abdullayevna</b> PAZANDACHILIK O'QUV XONASIDA XAVFSIZLIK TEHNIKA QOIDALARI .....	48
<b>21. Xojimatova Gulira'no</b> ORGANIZE LESSONS USING INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES THE MOST IMPORTANT ASPECT OF PRIMARY EDUCATION.....	50
<b>22. Yusupova Dilyoraxon Shavkatjonovna</b> MNEMOTEXNIKADA "ZIG-ZAG" INNOVATSION TEXNALOGIYASIDAN FOYDALANISH ORQALI YOPIQ URUG'LI O'SIMLILAR MAVZUSINI O'QITISH .....	52
<b>23. Z.M.Yuldasheva, G.Xudovberdiveva</b> TEXNOLOGIYA FANIDA STEAM TA'LIMIY YONDASHUVI .....	53
<b>24. Абдуллаев Иброҳим Нўмонович, Акрамов Умиджон Муроджон ўғли</b> ҚИРГУЛИ УЙСОЗЛИК КОМБИНАТИ (УСК) ФАОЛИЯТИНИНГ ҚИСҚА ТАҲЛИЛИ ВА ИСТИҚБОЛИ. ....	55
<b>25. Абдураимов Эркин Хамидович, Халманов Дилшод Хушвактович</b> ИННОВАЦИОННЫЕ БЕСКОНТАКТНЫЕ КОММУТИРУЮЩИЕ УСТРОЙСТВА АВТОМАТИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ЭЛЕКТРОСНАБЖЕНИЯ .....	58
<b>26. Бердимуродов Мансур Алишерович</b> ИХТИЁРИЙ БУЛ ФУНКЦИЯСИНИ ЖЕГАЛКИН КЎПҲАД КЎРИНИШИ .....	59
<b>27. Саидахмедов Актам Абдисамиевич</b> КОНВЕРТЕР ЧАНГИНИ ҶАЙТА ИШЛАШДА ФИЛЬТРЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШ .....	61
<b>28. С.А.Уразметова</b> КОМПЬЮТЕР ГРАФИК ДАСТУРЛАРИ ЁРДАМИДА ГИЛАМ ВА ГИЛАМ МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ НАҚШЛАРИНИ ЯРАТИШ.....	63
<b>29. Fazilova Lutfinisa Azamadxodjayevna</b> .....	66
TALABA-YOSHLARNING MEDIA SAVODXONLIK MADANIYATINI OSHIRISH .....	66
<b>30. Рахимова Феруза Атабек қизи</b> ЁШЛАРИМИЗНИ ТУРЛИ АҲБОРОТ МАНБАЛАРИДАН ТҮҒРИ ФОЙДАЛАНИШГА ҮРГАТАЙЛИК.....	69
<b>31. Ergasheva Shahnoza Komiljonovna</b> “МАКТАБДА TENGLAMALAR YECHISH USULLARI” NI T AHLIL QILISH .....	71



## TALABA-YOSHLARNING MEDIA SAVODXONLIK MADANIYATINI OSHIRISH

*Fazilova Lutfinisa Azamadxodjayevna*  
*Toshkent davlat stomatologiya institute assistenti*  
*Telefon: +998(90) 737 18 22*  
*fazilova1972@umail.uz*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodning internet resurslardan foydalanishdagi media savodxonligini oshirish haqida gap boradi. Hozirgi pandemiya sharoitida Internet foydalanuvchilar qatoriga asosan yosh avlod kirishini hisobga oladigan bo'lsak, bu yoshlarning media savodxonligiga e'tibor qaratmaslikning iloji yoqdir. Maqolada yoshlarning media savodxonlik madaniyatini oshirishda nimalarga e'tibor qaratish kerakligi yaqqol ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mediata'lism, media savodxonlik madaniyati, onlayn ta'lism, Internet, elektron pochta, axborot vositalari, internet-televideeniye, axborot resurslar.

Bugungi kunda, ayniqsa pandemiya sharoitida axborot olamida Internet, onlayn ta'lism tizimida o'qitish, pochta, onlayn-seminar va onlayn-vebinarlar, tezkor axborot almashinushi hamda konferensiylar olib borish uchun ZOOM-meeting, masofaviy ta'lism tizimida esa MOODLE platformalari kabi ko'plab yangi axborot tarqatish texnologiyalari tez sur'atlar bilan rivojlanib, ularning auditoriyasi va ta'sir doirasi tobora kengayib borayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Hozirgi pandemiya sharoitida ta'lism tizimining onlayn, ya'ni masofaviy ko'rinishda olib borilishi kundan kunga yoshlarni internetga bo'g'lab bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, axborot vositalariga asosan yoshlardan katta katta qiziqish bilan qarashmoqda va bu axborot vositalardan keng foydalanishmoqda. Yoshlarning virtual olamga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganligini hisobga olsak, ularga yangi bir madaniyatni, ya'ni media savodxonlik madaniyatini o'rgatish masalasi naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanini anglash qiyin emas.

Ma'lumki, aholi o'rtasida, jumladan, yosh avlod ongida dunyoda, yon-atrofimizda bo'layotgan voqealari, yangiliklar haqidagi fikrlarning shakllanishida ommaviy axborot vositalari katta rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda zamonaviy onlayn ta'lism tizimiga yana bir muhim vazifa — yoshlarni turli manbalardan, birinchi navbatda, televizor, Internet va mobil telefoni kabi axborot uzatuvchi vositalardan olinayotgan turli axborotlarni to'g'ri qabul qila olishga o'rgatish vazifasi yuklatilmoqda. Farzandlarimiz har qanday axborotlarning sifati va ishonchliligini baholay olishlari, axborotlardan to'g'ri foydalana bilishlari, foydalisini tanlay olishlari va har bir ma'lumotga tanqidiy yondashishni o'rganishlari zarur. Shu bilan birga, Internet, televideeniye, kino, radio, video, mobil aloqasi, turli ma'lumotlar aks etgan slaydlar va suratlar kabi aloqa hamda ma'lumot uzatuvchi vositalarning jadal rivojlanib borishi hayotimizni sifat jihatdan o'zgartirib, ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlodning axborot xavfsizligini ta'minlashdek muammolarini yuzaga keltirmoqda.



Mazkur jarayonda mediata'lism yoshlarni mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborotni olish, uni qayta ishslash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatish, yoshlarning dunyoqarashi, intellektual salohiyatining rivojlanishiga va kamol topishiga zamin yaratadi. Yoshlarning axborot madaniyati asosida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi: ishonchli axborot bilan ishslash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, ularni qayta ishslash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish,



do'stlariga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish kabilar. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga egadir. Har bir inson aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatalishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Bugungi pandemiya hamda globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim, bu esa yoshlarning media savodxonlik madaniyatini shakllantirishga to'g'ridan to'g'ri bog'liddir. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rnlardan birini egallasada, media ta'limga aniq tavsif berilmagan. Hozirgi kunda, mediata'lim resurslaridan butun dunyoda keng foydalanilmoqda.

Bugungi kunda media savodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga kiritilgan. 1990-yillarda mamlakatda "media savodxonlik" tushunchasi "mediata'lim" tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada u 1980-yildan boshlab ta'lim muassasalarida alohida fan sifatida o'qitila boshlangan. 1990-yillarda Rossiyada mediata'lim bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, 2002-yilda pedagogika oliy ta'lim muassasalari uchun mediata'lim ixtisosligi bo'yicha yo'nalish ochildi. Shuningdek, 2005-yil YUNESKO homiyligida «Mediata'lim» darsligi yaratildi va Rossiyada kinota'lim va mediapedagogika sayti ishga tushirildi. Media savodxonlik alohida bir fan sifatida kiritilmagan bo'lsada, Respublikamiz umumta'lim maktablarida ham mediata'lim elementlari «Adabiyot», «Tarix», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Informatika» va «Musiqa» fanlari tarkibiga singdirilgan holda o'qitilmoqda.

Ma'lumotlarda keltirilishicha, har bir foydalanuvchi kuniga Internetdan foydalanish uchun ko'plab vaqt ajratadi. Biroq bugungi kun talabiga ko'ra, zarur axborot va ma'lumotlarni keraksiz va yaroqsizlaridan soxtalaridan ajrata olish, ya'ni media savodxonlik madaniyatiga ega bo'lish zarurati yuzaga kelmoqda. Avvalo, mediasavodxonlik madaniyatining o'zi nima, nega unga bugun dunyo bo'ylab talab ortib bormoqda kabi savollarga javob topish lozim. Chunki so'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda, salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlik madaniyatiga ega bo'lish zaruratini qo'ydi. An'anaviy tarzda media savodxonlik madaniyatni bu shaxsning asarlarni tahlil eta olishi va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan.

«Media» — lotincha «media» so'zidan olingen bo'lib, «vosita», «vositachi» yanada aniqrog'i, «ommaviy axborot vositalari» degan ma'noni anglatadi. Media vositalar onlayn ta'lim jarayonini vizual materiallar bilan boyitishga, darsning sifatlari o'tilishi va talabalar (o'quvchilar) tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va shu bilan birga, modem, foto, video, kompyuter texnologiyalari, Internet bilan do'stlashish, bilimlarni kengaytirish imkonini yaratadi. Media vositalari yaxshilik bilan bir qatorda, yovuzlikka ham xizmat qilishga qodirdir. Afsus, bugungi kunda "o'rgimchak odam"ga havas qilib, o'zini yuqorida pastga otayotgan yoshlar, reklamalarda berilayotgan barcha axborotlarga ishonuvchi shaxslar, yot g'oyalarga ergashib ketayotgan kimsalar ham yo'q emas.

Bugungi axborot muhitini tushunishda media savodxonlik madaniyatini muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarda avvalo, OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini, turli axborotlarni qabul qilgandan keyin ham har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadda uzatilmoqda, unda kimning manfaatlarini aks ettirmoqda degan tushunchalarni shakllantirish lozim. Mohiyati o'rganilmagan, yolg'on tarqatilayotgan xabar va axborotlarning hayotimizni tubdan o'zgartirib yuborishi muqarrardir. Aynan axborotni tahlil etmay, o'z holicha qabul qilish oqibatida, dunyoning turli chekkalarida yoshlar jinoyatga qo'l urmoqda, o'zini kino qahramoni sifatida his qilganlar esa, «qahramon» xatti-harakatlarini takrorlagan holda qo'llariga qurol olib, begunoh insonlar hayotiga zomin bo'lishmoqda. Demak, aynan ana shu holatlarning oldini olish, axborotga ongli ravishda yondashish bugun zamon talabidir va buni yoshlarga media savodxonlik madaniyatini orqali singdirish kerakdir.

Axborot olamida turli tahdidlar bor ekan, bunday axborot olamimizga chegara qo'yib bo'lmaydi. Shu bois yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib berishimiz va ularning



ma'naviy olamini keraksiz axborotlardan asrashimiz darkor. Ayni paytda, mediata'lim asoslarini har bir ta'lim muassasasi o'quv dasturiga kiritish, bolalarga maktabgacha ta'lim jarayonida uning asoslarini interaktiv, turli o'yinlar shaklida tushuntirish, o'sib kelayotgan avlod tomonidan shiddatli axborot oqimida ishonchligini va zarurini tanlash hamda unga tanqidiy yondashgan holda baholay olish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasining yanada mustahkamlanishiga, jahonda yuz berayotgan voqealarni xolis baholab, to'g'ri qaror qabul qila olishiga asos bo'la oladi.



Foydalilanlgan adabiyot va saytlar ro'yxati:

1. Berdiyeva S.M., Imomova Sh.M., Использование информационных технологий на уроках информатики/ Наука, техника и образование.
2. <http://ziyonet.uz>
3. <http://geografiya.uz>
4. <http://uz.infocom.uz>

**TADQIQOT.UZ  
ТОМОНИДАН ТАШКИЛ ЭТИЛГАН**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 18-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(16-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.07.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000